# TA’LIM JARAYONLARINI TASHKIL ETISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING TUTGAN O’RNI

**Madinabonu G‘afforova**
*Farg‘ona davlat universiteti filologiya fakulteti o‘zbek tili yo‘nalishining 1-kurs talabasi*
**Ilhomjon Aldashev**
*Farg‘ona davlat universiteti axborot kafedrasi o‘qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada bugungi hayotimizda ta’lim tizimini rivojlantirishda va uning samaradorligini oshirishda zamonaviy axborot texnologiyalarning tutgan o‘rni haqida so‘z boradi.*
**Kalit so‘zlar:** *innovatsion , axborot texnologiyalari , kundalik.com , kredit-modul*

Ilm-fan taraqqiyot asosi. Albatta, zamonaviy ilm-fan yutuqlariga, innovatsion g'oyalarga tayanmagan davlatning ham, jamiyatning ham kelajagi bo‘lmaydi.Faqatgina kuchli ilm va ma'rifat, intellektual salohiyat, har tomonlama bilimli kadrlar bilan biz O'zbekistonni yangi taraqqiyot bosqichiga olib chiqa olamiz.

Bugungi kunimizning har bir o'qituvchisiga barkamol avlodni buyuk kelajak uchun tarbiyalab voyaga yetkazishdek mas'uliyatli vazifa yuklangan bo'lib, ta'lim mazmunini takomillashtirishga qaratilgan vazifalarni belgilab olish va ularni rejalashtirib amalga oshirish, zamon bilan hamnafas bo‘lib, ta'limning zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etgan holda o'quvchilarda o'z faniga qiziqish uyg'otishlari,hurmat-ehtirom tuyg'ularini shakllantirib borishlari talab etiladi.

Bugungi kunda har bir mamlakatda buyuk kelajakka erishish, mamlakat taraqqiyotini yuksaltirish uchun ta‘lim sohasiga katta e‘tibor berilmoqda.Ta'lim sohasida ijobiy natijalarga erishish, eng avvalo, yosh avlodni ilmli bo‘lishga chorlash,ularning bilimlarni mustahkamlash ,ularning dunyoqarashini, tafakkur ko'lamini kengaytirish, ma'naviy, axloqiy tomonlarini shakllantirish borasidagi ta'limiy-tarbiyaviy masalalarni samarali natija berishini tashkil etish bilan belgilanadi. Bu borada ta'lim tarbiya jarayoniga katta e‘tibor berilmoqda , ko‘plab islohotlar o‘tkazilmoqda , yangicha rejalar uchun harakat qilinmoqda Shulardan biri, zamonaviy axborot texnologiyalardan foydalanib dars o‘tish hisoblanadi. Bugungi kunda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish ta‘limda juda ko‘p qulayliklarga olib kelmoqda. Dars jarayonida o‘quvchilar electron darsliklardan , qo‘llanma va taqdimotlardan keng foydalanishmoqda .

Ayniqsa, taqdimotlardan namoyish va ko‘rgazmali material sifatida foydalanish o‘quvchining dars mashg‘ulotlarini o‘zlashtirishini osonlashtirmoqda. O‘quv materialining taqdimotda animatsiya shaklida berilishi berilayotgan ma‘lumotlarni tushunishni yengillashtirmoqda .

Elektron taqdimotlarning yana bir qulay tomoni shundaki, ularni oʻquvchilarga tarqatma, slayd shaklida berish ham mumkin.Dars mashgʻulotlarining mana shunday tartibda oʻtkazilishi taʻlim jarayonida yengilliklar olib keladi .

Mamlakatimizda taʻlim tizimida axborot texnologiyalaridan foydalanish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Shunday boʻlsa-da oʻtkazilayotgan islohotlar natijasida axborot texnologiyalarini rivojlantirishga eʻtibor berilmoqda. Buning samarasini yurtimizdagi oliy taʻlim muassasalarida kredit-modul, maktablarda esa kundalik.com tiziminining yoʻlga qoʻyilishida koʻrishimiz mumkin.

Darhaqiqat, taʻlim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish davr talabi hisoblanadi.Darslarni innovatsion pedagogik texnologiyalar bilan tashkil etish, oʻquvchilarni individual tarzda fikrlashga, axborot texnologiyalarining imkoniyatlaridan oqilona tarzda foydalanishga oʻrgatish, oʻtkazilayotgan darslarning oʻzlashtirish sifatini oshirish bugungi kundagi ustivor vazifalardan biri hisoblanadi.

Ayni paytda mamlakatimizda koʻplab fuqarolar zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishga katta qiziqish bildirishmoqda .Yurtimizda har bir sohada xoh ijtimoiy , xoh iqtisodiy , xoh siyosiy boʻlsin , har bir jabhada zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanilmoqda.Chunki ulardan har bir sohada foydalanish samarali natijalarga olib kelmoqda .

Ta'lim jarayonida axborot texnologiyalari o'rnini o'rganish, o'qitish va o'rganilayotganlarga ma'lumotlarni taqdim qilish uchun texnologiyalardan foydalanishni o'z ichiga oladi. Bu, o'quvchilar va o'qituvchilar uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarga tez, qulay va samarali kirishni ta'minlashda yordam bera oladi. Quyidagi axborot texnologiyalari ta'lim jarayonida o'rnini olishda muhim bo'lganlaridan ba'zilarini ko'rib chiqamiz:

1. Internet va Veb-saytlar: Internet orqali o'quv materiallariga kirish, elektron kutubxonalar va onlayn ma'lumotlar orqali o'quvchilarga qulaylik yaratish mumkin. Veb-saytlar va elektron kutubxonalar, ilmiy maqolalar va boshqa ma'lumotlarni qidirishda va o'rganishda yordam beradi.

2. Onlayn ta'lim platformalari: Bu platformalar orqali o'qituvchilar o'quvchilarga darslar o'tkazish, vazifalarni yuborish, sinovlar o'tkazish va boshqa ta'lim faoliyatlarini amalga oshirishlari mumkin. Misol uchun, Moodle, Google Classroom, va boshqa onlayn ta'lim platformalari.

3. Multimedia vositalar: Video darslar, interaktiv darslar, animatsiyalar, va boshqa multimedia vositalar o'quv jarayonini o'zlashtirishda va o'quvchilarni qiziqtirishda yordam bera oladi.

4. O'quvchilarga mahsus dasturlar: O'quvchilarni o'zlashtirish uchun mahsus dasturlar (apps) ishlatish mumkin. Bu dasturlar o'quvchilar uchun qiziqarli va o'rganishni oson qilishga yordam beradi.

5. Interaktiv ta'lim vositalari: Virtual ta'lim ma'lumotlarini ishlab chiqish, interaktiv darslar tuzish va o'quvchilarga amaliy mashg'ulotlar tashkil etish uchun interaktiv ta'lim vositalaridan foydalanish.

6. Webinarlar va onlayn konferensiyalar: O'quvchilar va o'qituvchilar uchun onlayn konferensiyalar va webinarlar tashkil etish orqali bir-biriga savollar bermoq, tajriba almashish va yangi ma'lumotlarni olishlari mumkin.

7. O'quvchilarning bireylik rivojlanishi uchun texnologiyalar: Personalizatsiya qilinadigan ta'lim texnologiyalari, o'quvchilarning individualligi va o'quv jarayonini o'zlashtirishda yordam bera oladi.

8. Ta'lim ma'lumotlarni boshqarish uchun dasturlar: O'qituvchilar uchun ma'lumotlar tuzish, sinovlar o'tkazish va baholashda yordam bera olish uchun ta'lim ma'lumotlarini boshqarish uchun dasturlardan foydalanish.

Bu axborot texnologiyalari, ta'lim jarayonini sodda, samarali va qulay qilishda yordam beradi. O'qituvchilar va o'quvchilar bu texnologiyalardan foydalanib, o'rganish jarayonini yangilash, o'quv jarayonini qiziqtirish va talabalar o'rtasidagi aloqalarni kuchaytirishlari mumkin.

Butun dunyoda boʻlgani kabi bizning yurtimizda ham taʻlim tizimida koʻplab islohotlar oʻtkazilmoqda . Bu, albatta, yurtimiz istiqboli uchun harakat demakdir. Taʻlim tizimimizda zamonaviy axborot texnologiyalardan foydalanish samarali natijalarga , salohiyatli kadrlarning yetishishiga olib kelmoqda. Shunday ekan, har jabhada texmologiyalarning rivojlanishi uchun harakat qilaylik.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. SUN’IY IDROKNING KELAJAKKA TA’SIRI: UNING INSONIYAT HAYOTIDAGI AHAMIYATI Z Sidiqova, I Aldashev - Научный Фокус, 2023
2. BOSHLANG ‘ICH SINF TA’LIMIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH M Odiljonova, A Ilhomjon - Научный Фокус, 2023
3. AKT RIVOJLANGAN DAVRDA TA’LIM BOSHQARUVIDA MASOFAVIY TA’LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH USULLARI A Ilhomjon - Научный Фокус, 2023
4. ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNING HOZIRGI KUNDAGI AHAMIYATI A Ilhomjon, A Gulira'no - Научный Фокус, 2023
5. TA’LIM JARAYONIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING TUTGAN O ‘RNI F Nigoraxon, A Ilxomjon - Научный Фокус, 2023
6. TURLI SOHALARDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING TUTGAN ROLI S Madinabonu, A Ilxomjon - Научный Фокус, 2023
7. TEXNOLOGIYA DARSLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI O ‘RNI M To'rayev, ST Aldasheva, IT Aldashev - Results of National Scientific Research International …, 2023
8. DARS SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING O ‘RNI I Aldashev, S Aldasheva - … AND PRACTICAL CONFERENCE" THE TIME OF …, 2022